ONA TILI TA’LIMIDA TINGLAB TUSHUNISH TOPSHIRIQLARINI MOSLASHUVCHAN LOYIHALASH MEXANIZMI

Matniyazova Dilrabo Ulug‘bekovna
Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ona tili ta’limida tinglab tushunish topshiriqlarini yaratish va ularni turli ta’lim sharoitlariga moslashtirishning metodik mexanizmi yoritiladi. Tinglab tushunish topshirig‘ining metodik tuzilishi maqsad, tinglash materiali, tinglash sharoiti, o‘quvchi amali va natija mezoni kabi tarkibiy qismlarning funksional uyg‘unligi asosida talqin etiladi. Tadqiqotda topshiriqni moslashtirish jarayoni tayyor topshiriqqa keyinchalik tuzatish kiritish emas, balki uni loyihalashning ichki boshqaruv mexanizmi sifatida asoslanadi. Bunda asosiy metodik tamoyil sifatida “metodik maqsad barqaror, topshiriq parametrlari esa moslashuvchan” konsepsiyasi ilgari suriladi. Mazkur yondashuv bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga tinglab tushunish topshiriqlarini o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, texnik imkoniyatlar hamda auditoriya sharoitidan kelib chiqib mustaqil yaratish hamda moslashtirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *tinglab tushunish, ona tili ta’limi, lingvodidaktika, moslashuvchan loyihalash, audiomatn, o‘quvchi amali, natija mezoni, kognitiv yuklama.*

Abstract. *This thesis examines the methodological mechanism for developing listening comprehension tasks in mother tongue education and adapting them to diverse instructional contexts. The methodological structure of a listening comprehension task is interpreted as the functional integration of such components as the instructional objective, listening material, listening conditions, learner action, and outcome criteria. The study conceptualizes task adaptation not as a subsequent modification of a ready-made task, but as an internal control mechanism embedded in the task design process. Accordingly, the core methodological principle proposed is the concept that “the methodological objective remains stable, while task parameters remain flexible.” This approach enables prospective teachers of the Uzbek language and literature to independently develop and adapt listening comprehension tasks according to learners’ proficiency levels, available technological resources, and classroom conditions.*

Keywords: *listening comprehension, mother tongue education, linguodidactics, flexible task design, audio text, learner action, outcome criteria, cognitive load.*

Kirish. Tinglab tushunish nutq faoliyatining murakkab va faol turi bo‘lib, og‘zaki axborotni qabul qilish, uning semantik mazmunini anglash, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni differensiyalash, mantiqiy-mazmuniy bog‘liqliklarni aniqlash, gipoteza tuzish hamda tinglangan axborotga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish kabi aqliy-nutqiy jarayonlarni qamrab oladi. Shu sababli tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni faqatgina audiomatnni eshittirish va u bo‘yicha ketma-ket savol-javob o‘tkazish bilan cheklanmaydi.

Tinglab tushunishni samarali rivojlantirish uchun topshiriqning metodik maqsadi, tinglash materiali, uni qabul qilish sharoiti, o‘quvchidan talab qilinadigan kognitiv-amaliy faoliyat hamda natijani baholash mezoni yaxlit tizim sifatida loyihalashtirilishi lozim. Ayniqsa, ta’lim muassasalaridagi texnik imkoniyatlarning turlichaligi, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va vaqt cheklovlari tinglab tushunish topshiriqlarini moslashuvchan tashkil etishni taqozo etadi.

Ona tili ta’limida tinglab tushunish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda tinglab tushunishga oid testlarni yaratish va baholash, darsliklardagi topshiriqlarni tahlil qilish, interaktiv amaliy topshiriqlardan foydalanish hamda o‘zbek tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Xususan, D. Abduraimova (2025) Tinglab tushunish ko‘nikmasiga oid testlarni yaratish va baholash masalalarini, S. B. Panjiyev (2025) “7-sinf ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni, K. Mavlonova va Z. Sobirxonova (2025) Tinglab tushunishga oid interaktiv amaliy topshiriqlarni, Q. Q. Abdurasulov (2026) esa O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning metodik asoslarini yoritgan.

Mazkur tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu tezisda tinglab tushunish topshirig‘ini loyihalash va yaratish, uning tarkibiy qismlarini o‘zaro muvofiqlashtirish va turli ta’lim sharoitlariga moslashtirishning yaxlit va moslashuvchan metodik mexanizmini asoslash markaziy masala qilib qo‘yiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Ona tili ta’limida tinglab tushunish topshiriqlarini metodik maqsad, tinglash materiali, tinglash sharoiti, o‘quvchi amali va natija mezonining funksional uyg‘unligi asosida loyihalash hamda ularni turli ta’lim sharoitlariga moslashtirish mexanizmini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Tinglab tushunish topshirig‘ining metodik tuzilishi va loyihalash mexanizmi

Tinglab tushunish topshirig‘ini loyihalashda uning alohida elementlarini emas, balki ular o‘rtasidagi tizimli va funksional bog‘liqlikni hisobga olish lozim. Shu nuqtayi nazardan, topshiriqning metodik tuzilishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan 5 ta asosiy tarkibiy qismdan iborat:



Tinglab tushunish topshirig‘ini moslashuvchan loyihalash mexanizmi

Loyihalash bosqichlari



1-rasmga izoh: Mazkur mexanizmda metodik maqsad boshlang‘ich va invariant (o‘zgarmas) komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda tinglash materiali, uni qabul qilish sharoiti, o‘quvchi tomonidan bajariladigan aqliy-nutqiy amal va natijani aniqlash mezoni mazkur maqsad bilan funksional jihatdan muvofiqlashtiriladi. Topshiriq

bajarilgach, olingan natija tahlil qilinadi. Agar topshiriq o‘qituvchining mavjud tayyorgarligi yoki real ta’lim sharoitiga mos kelmasa, uning metodik maqsadi o‘zgartirilmaydi, balki variantiv (moslashuvchan) parametrlari qayta moslashtiriladi. Shu tariqa topshiriq qayta loyihalanadi va ta’lim jarayonida takroran samarali qo‘llanadi.

Jarayonning universal metodik formulasi:



Tinglab tushunish topshirig‘i komponentlarining funksional tavsifi

1-jadval. Topshiriq komponentlarining funksional va moslashuvchanlik xususiyatlari

Komponent	Metodik vazifasi	Asosiy parametrlar	Barqaror (Invariant) jih	Moslashuvchan (Variantiv) jihat	Kutiladigan n
Metodik maqsad	Rivojlantiriladigan tinglab tushunish amalini belgilash	Asosiy fikrni aniqlash, axborotni differensiyalash, taqqoslash, xulosa chiqarish	Metodik yo‘nali va o‘quv maqsad	Murakkablik darajasi, ko‘rsatiladigan yordam turi	Maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy-kogniti faoliyat
Tinglash materiali	O‘quvchi qabul qiladigan mazmunni belgilash	Mavzu, janr, hajm, leksik murakkablik, axborot zichligi	Maqsadga muvofiqlik (semantik moslil	Matn hajmi, leksik qatlam, axborot zichligi, tayanch so‘zlar	Maqsadga va darajaga mos audiomat
Tinglash sharoit	Axborotni qabul qilish jarayonini tashkil etish	Audiomatn/o‘qituvchi nutqi, takrorlash soni, nutq sur’ati, texnik vosita	Maqsadga yo‘nalganlik	Takror tinglashlar soni, vaqt, taqdim etish usuli, vaqtinchalik pauzalar	Optimal tingla sharoiti
O‘quvchi amali	Tinglangan axborotni faol qayta ishlashni ta’minlash	Aniqlash, guruhlash, taqqoslash, izohlash, xulosa chiqarish, asoslash	Maqsad bilan b mantiqiy bog‘liq	Yordamchi tayanchlar, yo‘naltiruvchi savollar, kognitiv yuklama	Faol mazmuniy mantiqiy qayta ishlash
Natija mezoni	O‘quvchi faoliyatining natijasini aniqlash va baholash	To‘g‘rilik, to‘liqlik, mazmunga muvofiqlik axborotni asoslanganligi	Natijani aniqlash mantig‘i	Mezon murakkabligi, dalillash shakli (og‘zaki/yozma)	Kuzatiladigan obyektiv tahli qilinadigan nat

Jadvaldan ko‘rinadiki, topshiriqning barcha komponentlari bir xil darajada o‘zgarmaydi. Metodik maqsad topshiriqning yo‘nalishini belgilovchi barqaror

komponent bo‘lsa, tinglash materiali, tinglash sharoiti, yordam vositalari, vaqt va nutq sur’ati ta’lim sharoitiga ko‘ra moslashtiriladigan variativ parametrlar sanaladi.

“Tinglab tushunish topshirig‘i konstruktori” va uning amaliy namunalari

Bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilarida loyihalash kompetensiyasini shakllantirish uchun “Tinglab tushunish topshirig‘i konstruktori” ishlab chiqildi. Konstruktor 6 ta konseptual savolga asoslanadi:

1. Nima uchun? - Qaysi tinglab tushunish amali (kognitiv ko‘nikma) rivojlantiriladi?

2. Nimani tinglaydi? - Qanday mazmun, janr va hajmdagi material tanlanadi?

3. Qanday sharoitda tinglaydi? - Tinglash jarayoni qanday tashkil etiladi?

4. O‘quvchi nima qiladi? - Tinglashdan so‘ng qanday aqliy-nutqiy amal bajariladi?

5. Natija qanday aniqlanadi? -O‘quvchining natijasi qaysi mezon bo‘yicha baholanadi?

6. Sharoit o‘zgarsa, nima o‘zgaradi? - Metodik maqsad saqlangan holda qaysi parametrolar moslashtiriladi?

Amaliy namunalar: (Masalan)

Maqsad: O‘quvchida tinglangan matnning asosiy fikrini ajratib olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Material: 1–2 daqiqalik publitsistik yoki ilmiy-ommabop audiomatn.

O‘quvchi amali: Tinglash → asosiy fikrni ajratish→ uni bir jumlada ifodalash.

Natija mezoni: Axborotning to‘g‘ri anglangani va ifodaning mantiqiy aniqligi.

Moslashtirish: O‘quvchi qiynalganda tayanch savollar beriladi yoki audiomatn ikkinchi marta eshittiriladi.

Yana bir misol:

Maqsad: Tinglangan axborot birliklarini mantiqiy va xronologik ketma-ketlikda joylashtirish.

Material: Voqealar rivoji yoki bosqichli jarayonlar yoritilgan matn.

O‘quvchi amali: Tinglash →muhim voqea/faktlarni ajratish→ularni ketma-ketlikda joylashtirish.

Natija mezoni: Axborot birliklarining mantiqiy mezonga mos tartiblanishi.

Moslashtirish: Boshlang‘ich bosqichda axborot birliklari soni kamaytiriladi (3-4 ta); o‘zlashtirish ortgani sari birliklar ko‘paytiriladi (6-8 ta).

Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyati

Ilmiy yangiligi:

○Tinglab tushunish topshirig‘ining metodik tarkibi maqsad, tinglash materiali, sharoit, o‘quvchi amali va natija mezonining funksional birligi sifatida tizimlashtirildi.

○ Topshiriqni moslashtirish jarayoni statik tuzatish emas, balki loyihalashning dinamik va ichki boshqaruv mexanizmi sifatida asoslandi.

○ “Metodik maqsad barqaror — topshiriq parametrlari moslashuvchan” variativ ta’lim tamoyili ilmiy va metodik jihatdan dalillandi.

○ O‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirishga xizmat qiluvchi oltita savoldan iborat “Tinglab tushunish topshirig‘i konstruktori” ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati:

Taklif etilayotgan mexanizm bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda, 5–11-sinf ona tili darsliklaridagi tinglab tushunish topshiriqlarini modifikatsiya qilishda hamda differensial ta’lim jarayonini tashkil etishda amaliy metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Ona tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasini samarali rivojlantirish topshiriqlarning shunchaki mavjudligi bilan emas, ularning metodik jihatdan to‘g‘ri va moslashuvchan loyihalashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda asoslangan “metodik maqsad barqaror — topshiriq parametrlari moslashuvchan” konsepsiyasi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual kognitiv imkoniyatlarini hamda real auditoriya sharoitlarini to‘liq hisobga olishga imkon beradi. Natijada bo‘lajak ona tili o‘qituvchisi tayyor topshiriqlarning oddiy ijrochisi emas, balki ularni ilmiy-metodik asosda yaratadigan, tahlil qiladigan va takomillashtiradigan pedagogik subyekt sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimova D. Ta’limda tinglab tushunish ko‘nikmasiga oid testlarni yaratish va baholash // Til va adabiyot.uz. — 2025. — № 16. — B. 151–152.
2. Abdurasulov Q. Q. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning metodik asoslari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026.
3. Mavlonova K., Sobirxonova Z. 7-sinf o‘quvchilarida tinglab tushunishga oid interaktiv amaliy topshiriqlar // Shaxs ma’naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli. — Akademnashr, 2025. — B. 501–507.
4. Panjiyev S. B. 7-sinf ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi muammolar va ularning yechimlari // Til, adabiyot, jamiyat va ong: fanlararo tadqiqotlar yo‘lidagi ulkan qadamlar. — Toshkent, 2025. — B. 1128–1132.